

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV MADAMIN SAOTBOYEVICH**

**MAXTUMQULI FIROG‘IY MA‘NAVIY MEROSINING  
FALSAFIY TAHLILI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philosophical sciences**

**Abdullayev Madamin Saotboyevich**

Махтумқули Фирог‘и ма’навий меросининг falsafiy tahlili ..... 5

**Абдуллаев Мадамин Саотбоевич**

Философский анализ духовного наследия Махтумкули Фираги..... 21

**Abdullaev Madamin Saotboevich**

Philosophical analysis of spiritual heritage of Makhtumkuli Firoghi..... ..41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV MADAMIN SAOTBOYEVICH**

**MAXTUMQULI FIROG'IIY MA'NAVIY MEROSINING FALSAFIY  
TAHLILI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal798 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajieva Maqsuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodmonov Qurbon Badriddinovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna,**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "14" oktabr soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (369 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "30" sentabr kuni tarqatildi.  
(2023 yil "30" sentabr da 20 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Navro'zova G. N.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A. Z.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipova O.T.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kechayotgan ma'naviy tanazzul, g'oyasizlik, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlar yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyalarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Insoniyat to'plagan tarixiy tajribadan ma'lumki, falsafiy dunyoqarashning shakllantirish va yosh avlodni ma'rifiy, axloqiy etib tarbiyalashda, mantiqiy tafakkurini yuksaltirishda mutafakkirlar tomonidan yaratilgan boy ma'naviy merosdan foydalanish jamiyat a'zolarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Bu borada, Maxtumquli Firog'iyning boy ilmiy-adabiy merosi, hikmatlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalar hamda demokratik qadriyatlarni rivojlantirish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirishga oid qarashlarining yoshlarda halollik, poklik, insof-diyonat, sabr-qanoat kabi fazilatlarini shakllantirishdagi rolini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida innovatsion va sivilizatsion o'zgarishlar sharoitida ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib etish, ularni ijtimoiy hayotga tadbiq qilish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Har bir xalq, millat ilmiy merosida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, huquqiy va falsafiy qarashlar axborotlashuv davrida inson ongini g'oyaviy falajlash, qadriyatlarni oyoq osti qilish, mafkuraviy qaramlik va mo'may daromad ko'rishga qaratilgan ma'naviy xurujlardan muhofaza qilishda, ularning dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ilmiy-konseptual ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Maxtumquli Firog'iyning diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy qarashlari, olam, inson, uning borlig'i, kamoloti masalasi hamda jamiyatda ro'y beruvchi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy hamjihatlik, bag'rikenglik murossaviylik kabi umuminsoniy g'oyalarini falsafiy kontekstda tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini oshirishga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, "Beqiyos so'z san'atkori Maxtumquli Firogiy nafaqat turkman xalqiga, ayni paytda butun Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga ham birdek aziz va qadrli siymodir. Maxtumqulining biror she'rini bilmaydigan o'zbek, yurtimizda uning kitoblari, qo'shiqlari kirib bormagan biror xonadon yo'q, desak, yanglishmagan bo'lamiz"<sup>1</sup>. Shuning uchun Maxtumquli Firog'iyning ilmiy-falsafiy, axloqiy g'oyalari, halollik, poklik, insof-diyonat kabi fazilatlarga oid qarashlari hamda jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi gumanistik ta'limotining yoshlarda vatanparvarlik, kuchli qat'iyat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va sabr-qanoat singari fazilatlarini shakllantirishdagi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – Б.367.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Maxtumquli Firog‘iyning ma’naviy merosiga bo‘lgan dastlabki qiziqish va uning ma’naviy merosini tadqiq etish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yevropalik A.Xodzko-Boreyko, A.Vamberi, Axmad-Zaki Validiy-To‘g‘on kabi olimlar faoliyatida kuzatiladi<sup>2</sup>. XX asrda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan F.Bakulin, V.Bartold, Ye.Bertels, A.Samoylovich, R.Ganiyevlar Maxtumquli hayoti va faoliyatiga doir tadqiqotlar olib borishgan<sup>3</sup>. Shuningdek, XX asrda Maxtumquli Firog‘iy asarlari tarjimalari bilan shug‘ullangan mutaxassislar qatorida A.Tarkovskiy, G.Shengeliya, M.Tarlovskiy, S.Ivanov, Yu.Gordiyenko, Yu.Neyman, N.Grebnev va boshqalarning nomlarini alohida qayd etish mumkin<sup>4</sup>.

Markaziy Osiyolik olimlar, jumladan, turkmanistonlik D.Abdullayev, A.Bekmuradov, B.Garriyev, S.Garriyev, M.Ko‘sayev, R.Kurbon, G.Choriyev,

---

<sup>2</sup> Chodzko A. Specimens of the Popular Poetry of Persia as Found in the Adventures and Improvisations of Kurroglou, the Bandit-minstrel of Northern Persia, and in the Songs of the People Inhabiting the Shores of the Caspian Sea. Orally Collected and Translated, with Philological and Historical Notes. L., 1842, -592 p; Вамбери, А. Путешествие по Средней Азии. Российская академия наук. Институт востоковедения/А. Вамбери. -Москва.: Вост. лит, 2003.-256 с; Валиди А.З. «Диван» Махтумкули... // Шуро. Оренбург. 1913. №12. -С.357-360. №13. – С. 393-395-524.

<sup>3</sup> Ф.А.Бакулин. Песни у туркмен и поэт их Махдум-Кули //Т.І.№3.СПБ, 1872. -105 с; Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. Соч.т.2.ч.1.-Москва, 1963. -1020 с; Бертельс Е.А. Махтум-Кули о художественном творчестве //Совет Эдебиети. -Ашхабад, 1944. № 7, -с.128-138.; А.Н.Самойлович Очерки по истории туркменской литературы //Туркмения. Т. 1. –Ленинград, 1929.-с.123-167; Ганиева Р.К. Восточный Ренессанс и его традиции тюркских литературах. Автореф. дисс. на соискании ученой степени докт. фил. наук. -Казан, 1992. -38 с.

<sup>4</sup> Махтумкули. Стихотворения (перевод А.Тарковский). -Ашгабат. Изд.Туркменистан, 1989. -192 с; Махтумкули. Избранные стихи. /Перевод с туркменского Г.Шенгелия; вступительная статья Е.Э.Бертельса. -Москва.Гослитиздат, 1945. -288 с; Махтумкули. Избранное. -Москва. Изд. Художественная литература, 1983. -277 с.

tojikistonlik K.X.Radjabova kabi olimlarning tadqiqotlarida Maxtumquli ma'naviy merosi turli kontekstlarda tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan B.Nazarov, H.Abdullayev, K.Quramboev, E.Ochilov, J.Yusupovlar tomonidan ham mazkur masala asosan filologik nuqtai-nazardan tadqiq qilingan<sup>6</sup>. N.Komilov tasavvuf namoyondalari qatorida Maxtumqulini ham alohida tilga olib o'tgan<sup>7</sup>. I.Haqqul va Q.Muhammadrizo mulohazalarida ham Maxtumqulining badiiy-falsafiy tafakkur olami masalasi qayd etilgan<sup>8</sup>. G.Navro'zova, M.Xajiyeva, F.Muzaffarov va boshqa olimlar tomonidan mazkur masalani o'rganishda metodologik ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilganligini qayd etish mumkin<sup>9</sup>.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar mavzuni tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqli ravishda mutafakkirning ma'naviy merosida alohida o'rin tutuvchi falsafiy qarashlar, Maxtumquli Firog'iyning ma'naviy-axloqiy, falsafiy qarashlarining ahamiyatini tadqiq etishga diqqat qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2.4-bandi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" (2020-2025 yy) yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Maxtumquli Firog'iy ma'naviy merosining falsafiy xususiyatlari va ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Maxtumquli Firog'iy dunyoqarashi shakllanishining tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy negizlarini aniqlash;

mutafakkirning diniy-irfoniy qarashlari tasavvuf ta'limoti g'oyalari bilan uyg'unligini qiyosiy tahlil qilish;

---

<sup>5</sup> Абдуллаев Д. Народные основы стихосложения в поэзии Махтумкули. Автореф.канд.дисс. -Ашгабат, Ылым, 1983. -77 с.; Бекмуратов А. Поэтическое мастерство Махтумкули Фраги. Автореф. дисс. на соискании ученой степени докт. фил. наук. -Ашгабат, 1990. - 49 с; Гарриев Б.Махтумкули и его патриотизм. -Ашгабат, Ылым, 1943. -25с.; С.Гарриев. Туркмен эдебиятынын совет гундогары халыкларынын эдебиятлари билен ўзара баглагышлыгынын тарыхындан. -Ашгабат, Ылым 1967.; М.Кösäýew. Edebiyat barada söhbet. -Aşgabat. Türkmenistan, 1972. -238 s; Курбон Р. Великий поэт-патриот Махтумкули. Автореф.канд.дисс. -Ашгабат, 1965; Г.Чориев. Из истории общественной мысли в Туркмении. Автореф.канд.дисс. -Ашгабат, 1954.Раджабова К. Таджикско-туркменские литературные взаимосвязи (на примере произведений Махтумкули Фраги). -Душанбе, 2017. -26 с.

<sup>6</sup> Назаров Б. Махтумкулининг замонавийлиги //Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2008. № 5. –Б.3–9.; Абдуллаев Х. Махтумкули ва ўзбек адабий мухити. –Т.: “Фан”, 1983, -85 б.; Курамбоев К. Махтумкули шеърияти Ўзбекистонда /Мас.мух. М.Кўшхонов.-Т.: Фан, 1984.-63 б.; Очилов Э. Махтумкули. -Тошкент : О'zbekiston, 2015. -160 б.; Юсупов Ж., Сапаров М. Магтымгулы эсерлериниң өзбек дилине тержемелери барада //«Магтымгули ва дуняниң рухи-медени гимматлыклары» атлы халкара ылымый мәсләхати тезислери. – Ашгабат, 2008. – С. 145–146.

<sup>7</sup> Комилов Н. Халқ ёдиндан айрилма. (Сўз боши) //Махтумкули Фироғий. Сайланма. –Тошкент.: “O'zbekiston”, 2008. - Б.4.

<sup>8</sup> Haqqulov I. She'riyat-ruhiy munosabat. –Тошкент.: 1989. -В.100.; Курбон Мухаммадризо. Махтумкули дунёси. –Урганч. 2013. -36 б.

<sup>9</sup> Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Фалс.ф.докт. дисс. автореферати. –Тошкент.: 2002. -46 б.; Хажиева М. Хожа Ахмад Яссавийнинг маънавий-тарбиявий қарашлари.П.ф.н. дисс.автореф. –Тошкент, 2004.-24.б.; Музаффаров Ф. Ғаззолийнинг инсон ҳақидаги таълимотининг илмий-фалсафий асослари.//Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2019. -44 б.

mutafakkir ijodida insonning ma'naviy-ruhiy kamoloti axloqiy qadriyatlar bilan dialektik aloqadorligini isbotlash;

Maxtumquli Firog'iyning pand-nasihatlaridagi inson mohiyati va nafs tarbiyasi, ma'naviy poklik, ezgulik hamda insonparvarlik g'oyalarning bugungi kunda yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalashga doir innovatsion yechimini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Maxtumquli Firog'iyning ma'naviy-axloqiy merosi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Maxtumquli Firog'iy pand-nasihatlaridagi ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy g'oyalarning yoshlar tarbiyasidagi rolini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, sinergetik va funksional tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Maxtumquli Firog'iy hikmatlaridagi diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy g'oyalar hamda gumanistik qarashlarning demokratik qadriyatlarni rivojlantirish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish g'oyalariga asos ekanligi mantiqiy dalillangan;

mutafakkirning halollik, poklik, insof-diyonat, sabr-qanoat, foniy dunyo moliga ruju qo'ymaslik kabi g'oyalarida mutasavifflarning qarashlari asos bo'lganligi retrospektiv asosda ochib berilgan;

Firog'iy falsafiy qarashlaridagi olam, inson, uning borlig'i, kamoloti masalasi hamda jamiyatda ro'y beruvchi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy hamjihatlik, bag'rikenglik (tolerantlik), murosaviylik kabi umuminsoniy g'oyalari bugungi davr xarakteriga adekvat ekanligi falsafiy kategoriyalar kontekstida aniqlangan;

mutafakkirning jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy g'oyalari yoshlarda vatanparvarlik, kuchli qat'iyat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va sabr-qanoat, insof va diyonat singari xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi falsafiy jihatdan asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Maxtumquli Firog'iyning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qarashlari yoshlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirishga, bilimli, ilmli, kasb-hunar egallash, ma'nan yuksalishiga, dunyoqarashining boyishiga ijobiy ta'sir qilishi ochib berilgan;

Maxtumqulining tasavvufiy qarashlari va ma'naviy merosining yoshlar dunyoqarashini shakllanishiga ijobiy ta'sir etishi, turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashuvchi mustahkam g'oyaviy immunitetni hosil qilishga xizmat qilishi mantiqiy asoslangan;

ma'nan yetuk, aqlan va teran fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashda Maxtumquli Firog'iyning gumanistik va vatanparvarlik qarashlarining konstruktiv ahamiyati borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, tadqiqot usullari va ilmiy ma'lumotlarning

rasmiy manbalar va ishonchli dalillardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, takliflar ishlab chiqilganligi va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi taraqqiyot modelini shakllantirishda, umuminsoniy qadriyatlarni taklomillashtirishda va yetuk shaxs tarbiyasi uchun buyuk mutafakkirlarning axloqiy-ma'naviy hamda ilmiy qadriyatlari, jumladan, Maxtumquli Firog'iyning ma'rifiy-madaniy merosi asosida ijtimoiy-falsafiy qarashlarning evolyutsiyasini nazariy tadqiq etishga imkon berganligi, "Pedagogika", "Tarbiya", "Falsafa", "Tasavvuf nazariyasi va tarixi", "Ma'naviyatshunoslik", "Etika" fanlari mazmunining metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Maxtumquli Firog'iyning ma'naviy merosi, pand-nasihatlar va axloqiy qarashlaridan yoshlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni bajarishda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning viloyat bo'limlarining targ'ibot va tashviqot ishlarida, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda millatlararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashishda, mahalla, oila masalalari, o'quv-tarbiya bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan yoshlarning hikmatlar, pand-nasihatlariga oid adabiyotlarni mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirishda, radio va televideniye orqali allomalar hayoti va faoliyatiga doir ko'rsatuvlar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maxtumquli Firog'iy ma'naviy merosining falsafiy tahlili bo'yicha ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

Maxtumquli Firog'iy hikmatlaridagi diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy g'oyalarning hamda gumanistik qarashlarning demokratik qadriyatlarni rivojlantirish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish g'oyalarga asos ekanligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning "YO'L XARITASI"sidagi madaniy merosni asrab-avaylash chora-tadbirlari doirasida "Turkiy tilli xalqaro yoshlar festivali va Yoshlar turizmi II qurultoyi"ni tashkil etish va o'tkazish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 6-martdagi 04-12-08-1318-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda madaniy-ma'rifiy rivojlanishni ta'minlashga, fuqarolarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ajdodlar merosiga sadoqat hissini shakllantirishga xizmat qilgan;

mutafakkirning halollik, poklik, insof-diyonat, sabr-qanoat, foniy dunyo moliga ruju qo'ymaslik kabi g'oyalarda mutasavviflarning qarashlari asos bo'lganligiga doir tavsiyalar va amaliy takliflardan Respublika Turkman madaniyat markazining Markaz va unig joylardagi bo'limlari faoliyatida,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror ijrosini ta’minlashda hamda 2023-yil 15-martda Xorazm viloyatida o‘tkazilgan “Maxtumquli Firog‘iy - o‘zbek-turkman do‘stligi ko‘prigi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Turkman madaniyat markazining 2023-yil 20-apreldagi 12-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek-turkman xalqlari do‘stligini yanada mustahkamlash, milliy-madaniy merosni asrab-avaylash hamda alloma ilmiy-falsafiy tafakkurini yanada kengroq o‘rganishga xizmat qilgan;

Firog‘iy falsafiy qarashlaridagi olam, inson, uning borlig‘i, kamoloti masalasi hamda jamiyatda ro‘y beruvchi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy hamjihatlik, bag‘rikenglik (tolerantlik), murosaviylik kabi umuminsoniy g‘oyalari bugungi davr xarakteriga adekvat ekanligiga doir xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-GOO2 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadbiq etish” (2017-2020-yy.) mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 8-iyundagi 244/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, falsafiy ta’limotlar tarixidagi ontologik, aksiologik, gnoseologik qarashlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini o‘rganishga, dinlararo va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan;

mutafakkirning jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma’naviy-axloqiy g‘oyalari yoshlarda vatanparvarlik, kuchli qat’iyat, mehnatsevarlik, mas’uliyat va sabr-qanoat, insof va diyonat singari xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligiga doir ilmiy yangiliklar, amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati faoliyatida, “G‘azal bo‘stoni”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Adabiy jarayon” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda (2022-2023 yy) foydalanilgan (O‘zbekiston MTRK “O‘zbekiston” teleradiokanali DMning 2023-yil 19-apreldagi O‘z/RV-23-25-son ma’lumotnomasi). Natijada, aholining, jumladan, yoshlarning axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish, o‘zbek-turkman xalqlari do‘stlik va madaniy aloqalarining mustahkamlanishiga, fuqarolarimizning ma’naviy-axloqiy kamolotiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan holda mamlakatimizda madaniy-ma’rifiy hayotni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Maxtumquli Firog‘iy ma‘naviy merosining ilmiy-nazariy xususiyatlari”** deb nomlanib, ushbu bobda Maxtumquli Firog‘iy ma‘naviy merosini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari hamda mutafakkir dunyoqarashi shakllanishining tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-ma‘naviy negizlari ochib berilgan. Shuningdek, mutafakkirning dunyoviy va diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur o‘zlashtirishi, uning falsafiy qarashlarini shakllantirgan ma‘naviy muhit, tarixiy-siyosiy jarayonlar xususida fikr yuritilgan.

Maxtumquli murakkab davrlarni boshidan kechirgan turkman xalqining yorqin kelajagini orzu qilib, buning uchun millat birligi, ahillik, ittifoq zarurligini uqtirib, **“Bir sufrada tayyor qilinsa oshlar, yana ko‘tarilar iqboli turkmanning”**<sup>10</sup>, deya mulohaza qiladi.

Tadqiqotchi mulohazalariga ko‘ra, Maxtumquli yashagan XVIII asr turkman xalqi tarixidagi nihoyatda og‘ir va murakkab davr edi. Yurtga dastlab Eron shohi Nodirshohning tez-tez uyushtirgan bosqinlari, tinch aholini qirg‘in qilib, erkaklarni o‘z qo‘shiniga askarlikka olib ketishi, ayollar va bolalarni qul bozorlarida sotib yuborishi, 1747-yilda Nodirshoh vafotidan so‘ng, mustaqil afg‘on davlatini tuzgan Axmadshoh Durraniyning zulmi davom etishi natijasida turkmanlar juda ayanchli kunlarni boshidan kechirayotgan edi. Xiva xonligi tasarrufidagi yerlarda yashovchi turkmanlarning ahvoli ham og‘ir bo‘lgan. Turkman qabilalarining har biri alohida-alohida, birlashmagan holda o‘z yo‘lini axtarardi. Bundan tashqari turkman qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro adovatli qarama-qarshiliklar ham xalqning tinkasini quritgan edi. Ana shunday murakkab vaziyatda Maxtumquli o‘z ijod namunalari orqali dunyoning turli burchaklariga sochilgan, mustaqil davlati bo‘lmagan turkman xalqini hamjihat bo‘lishga, yagona davlat atrofiga jipslashishga, milliy birdamlikka chaqiradi.

“Turkman xalqining urug‘larga bo‘linib yashashi, ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni ko‘rgan Maxtumquli ularni birlashishga chaqirdi, buning uchun avvalo, har bir qabilaning o‘z ichida barqarorlik bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Maxtumquli turkmanlar xalq bo‘lib birlashsa, unga hamla qilishga

---

<sup>10</sup> МАХТИМҚУЛИ. Том I {Матн} / Таржимон Г. Матёқубова. - Нукус: AVANGARD-BASRA, 2022. – Б.10.

hatto tashqi dushmanlar ham jur'at eta olmaydi, deb hisoblaydi. U, shodiyona yashash uchun bahodirona kurash kerak, deydi"<sup>11</sup>. Millatning birligi ta'minlansagina o'z davlatchiligiga ega bo'lishi mumkinligini qayta-qayta uqtirgan. O'z xalqining ozodligini, ma'naviy yetukligini, ruhan tetikligini orzu qilgan mutafakkir o'z she'rlarida tarqoq, uyushmagan, o'zaro nizo-janjalli turkman urug'larining yagona millat sifatida birlashishi, avvalo, o'zligini tanishiga, bir-biriga bo'lgan ishonch, o'zaro hurmat va ishonchga bog'liqligini teran falsafiy mushohadaga asoslangan pand-nasihatlarida ochib bergan.

Tadqiqotchi barcha davrlarda oila muhiti insonning kamol topishida asosiy omil sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan. Inson tarbiyasi, uning ma'naviy kamoloti, dunyoqarashining shakllanishi bevosita oiladagi sog'lom muhitga, otana tarbiyasiga bog'liq. Maxtumquli ma'naviy kamolotida, uning dunyoqarashi shakllanishida ham uning oilaviy muhiti, otasining pand-nasihatlari va ma'naviy ustozlik vazifasini mohirona ado etishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Tadqiqotda mutafakkirning tasavvuf ilmini o'zlashtirishida otasi - Davlatmamad Ozodiyning xizmatlari ham sezilarli ekanligi alohida ta'kidlangan. Otasi "shunchaki shoir emas, balki zamon allomasi, taqvo va ma'rifat ahlining peshvosi, avliyoi barhaq"<sup>12</sup> bo'lib, o'z davrining donishmand ma'rifatparvarlaridan bo'lganligi qayd etiladi. Maxtumquli otasining kamtarona turmush tarzini ixtiyor etganini "Otamning" deb nomlangan marsiyasida shunday ifodalaydi:

"Mol-davlatga sira ko'ngil qo'ymadi,  
Dunyoning aysh-ishratini suymadi,  
Eski sholdan ortiq kiyim kiyimadi,  
Oxirat edi o'y-qasdi otamning"<sup>13</sup>.

Dissertant Maxtumquli Firog'iy mazkur hikmati orqali, otasini nafaqat dunyoviy ilmlarga, balki yuksak darajada diniy-irfoniy bilimga ham ega ekanligini, halol-pok, kamtarin holda hayot kechirganini ifodalaydi, - deb qayd etadi. Faqirlik hayot mazmuni va mohiyatiga aylangani falsafiy qarashlarida o'z aksini topganligini asoslab bergan.

Davlatmamad Ozodiyning ahli turkmanlar orasidagi mashhurligi aynan uning kamtar va iymon-e'tiqodi kuchli shaxs ekanligida hisoblanadi. Maxtumquli otasiga bag'ishlangan marsiyasida ta'kidlaganidek, faqirona turmush tarzini ma'qul ko'rgan Ozodiy "mol-dunyoga ko'ngil qo'ymagan, eski sholdan ortiq kiyim kiyimagan, oxiratni o'ylab yashagan" inson edi. Ozodiyning "dunyo foniy, umri boqiy yo'q"<sup>14</sup> degan tasavvufona g'oyasini alohida ta'kidlash joiz. O'tkinchi dunyo orzu-havaslariga aldanib oxiratni unutmashlikni uqtirgan Davlatmamadning qarashlari yosh Maxtumqulining falsafiy dunyoqarashini shakllantirish va takomillashtirishda hamda diniy-irfoniy bilimlarini tizimlashtirishda muhim metodologik ahamiyat kasb etgan. Ozodiy diniy e'tiqodi kuchli, Allohga iymon keltirgan, diyonatli kishi bo'lgan. Bugungi globallashtirish dunyoda shu kabi insoniy

<sup>11</sup> Каримов И., Рустамова М. Фалсафа фани тарихи ва назарияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2007. - Б.123-124.

<sup>12</sup> Махтумқули. Сайланма. (Таржимон ва сўз боши муаллифи Мирзо Кенжабек) –Тошкент.: "Фан", 2004. - Б.2.

<sup>13</sup> Махтумқули. Дунё ўтиб борадир. (Сўзбоши Э.Очилов) –Тошкент.: "Шарк", 2007. - Б.238.

<sup>14</sup> Махтумқули асарлари. (тўпловчи А.Аширов). –Тошкент.: "Академнашр", 2013. -Б.44.

fazilatlarni kamol toptirish, o‘zaro munosabatlarda hurmat, mehr-oqibat, kamtarlik, sahovat, ishonch kabi axloqiy kategoriyalarning mazmun-mohiyatini tubdan anglagan holda hayot kechirishga intilishni shakllantirish ahamiyati beqiyos bo‘lib, insoniyatning kelajagiga xizmat qiluvchi asosiy faktorlardan bo‘lishi, shubhasiz.

Dissertant XIX-XX asrlarda faoliyat yuritgan A.Xodzko-Boreyko, A.Vamberi, V.Bartold, A.Validiy-To‘g‘on, Ye.Bertels, A.Samoylovich, R.Ganiyeva kabi olimlarning, A.Tarkovskiy, G.Shengeliya, M.Tarlovskiy, S.Ivanov, Yu.Gordiyenko, Yu.Neyman, N.Grebnev kabi tarjimonlarning Maxtumquli asarlarini to‘plab, tarjima qilish borasidagi salmoqli ishlari xususida ma‘lumotlar berib o‘tgan. Turkman va tojik olimlarining bu boradagi ilmiy izlanishlarini tahlil qilingan. O‘zbekistonda Maxtumquli ma‘naviy merosini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar xususida ma‘lumotlar keltirilgan. Bu jarayonda asosan mutafakkir asarlarining tarjimalari muhim o‘rin tutib, dastlab 1910-yilda “Hozirgi Maxtumquli devoni” deb nomlangan, yana Mirzaxit Mirsitdik o‘g‘lining o‘z hisobidan 1911-yilda Toshkentda “O‘ttiz ikki tuxum qissasi va Maxtumquli” nomi bilan chop qilingan to‘plamini misol qilish mumkin. Bu kitob G.K.Orifjonov tomonidan toshbosma usulida “G‘ulomiya” nashriyotida chop etilgan. 1914-yilda Gurbanberdi Xojageldi o‘g‘li o‘z hisobidan Maxtumquli she‘rlarini Buxoroda chop ettiradi. Shundan keyin Toshkentda shoir asarlarini nashr etish bilan bog‘liq ishlar 1958, 1963, 1979-yillarda (Jumaniyoz Sharipov tarjima qilgan) olib borilgan<sup>15</sup>.

O‘zbekistonda Maxtumquli asarlarini tarjima qilish va ilmiy tadqiq qilish borasida birmuncha ishlar qilinganligini ta’kidlab, “Ayniqsa, Maxtumquli she‘rlari Xorazm vohasida juda keng tarqalgan. XIX asrdayoq xorazmlik kotiblar tomonidan Maxtumqulining bir necha devonlari ko‘chirilgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida shoirning “Devoni Maxtumquli”, “G‘azaliyoti Maxtumquli”, “Masnaviyoti Maxtumquli”, “Ash‘ori Maxtumquli” nomlaridagi devonlari saqlanmoqda”<sup>16</sup>, - deb alohida qayd etgan.

Dissertatsiyada H.Abdullayev, K.Quramboev kabi olimlarning Maxtumquli ijodini o‘rganish borasidagi ishlari tahlil etilgan. Maxtumquli hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, albatta, shoir asarlarining tarjimalari muhim o‘rin tutishi, J.Sharipovdan tashqari alloma asarlarini o‘zbek tiliga o‘girish va chop etishda E.Ochilov<sup>17</sup>, A.Jumayev va J.Zulpiyev<sup>18</sup>, M.Axmad<sup>19</sup>, M.Kenjabeq<sup>20</sup>, M.Pirriyev<sup>21</sup> kabi tarjimonlarning alohida o‘rni borligi ta’kidlangan.

Tadqiqotda mutafakkirning diniy-tasavvufiy qarashlari, ilmiy-falsafiy, ma‘naviy-axloqiy, gumanistik-ijtimoiy g‘oyalari bugungi kunda dunyoda demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda, tinchlik va osoyishtalikni qaror

<sup>15</sup> Жепбарова С. Миллий истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигида Махтумқули ижодининг тадқиқ қилиниши. // Tamaddun nuri. – Тошкент, 2018. -№2. -Б.31.

<sup>16</sup> Курамбоев К. Махтумқули шеърляти Ўзбекистонда. –Тошкент: “Фан”, 1984. –Б.64.

<sup>17</sup> Очилов Э. Дунё ўтиб борадир. -Тошкент: “Шарқ”, 2007. -238 б; Устозингдан айрилма. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2012. -176 б; Махтумқули. Ҳикматлар. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2013. -248 б; Элингга бахш айла. –Тошкент: “Tasvir”, 2017. - 735 б.

<sup>18</sup> Жумаев А., Зулпиев Ж. Махтумқули-Фироғий. Сайланма. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2008. -120 б.

<sup>19</sup> Музаффар Аҳмад. Махтумқули. Сайланма: Янги таржималар. -Тошкент: Ёзувчи, 1995. - 96 б.

<sup>20</sup> Махтумқули [Matn]: she‘rlar / nashrga tayyorlovchi M. Kenjabeq. - Toshkent : “Akademnashr”, 2020. -128 b.

<sup>21</sup> Махтумқули. Сайланма. / (таржимон М. Пирриев) -Тошкент: “O‘qituvchi”, 2019. - 272 б.

toptirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bu borada Maxtumqulining tasavvufiy-falsafiy ta'limotidagi yoshlar tarbiyasiga oid axloqiy qarashlari, komil insonni tarbiyalash kabi g'oyalari diqqatga sazovordir. "Fikr aylang, kimim bordir Egamdan o'zga, do'stlar"<sup>22</sup>, - deb yozgan Maxtumquli Firog'iyning diniy dunyoqarashi shakllanishida ungacha bo'lgan tasavvuf allomalarining ta'limotlaridan xabardor bo'lishi, Qur'oni Karimni xatm qilishi, Hadisi sharifni o'rganishi, madrasalardagi diniy ma'ruzalarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lganligi ta'kidlangan.

Tadqiqotda Maxtumqulining Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Pahlavon Mahmud, Xoja Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari tasavvuf namoyandalari g'oyalari ilhomlanganligi xususida fikr yuritilgan. Tasavvuf insonning ijtimoiy mavqeyi, ruhiyati, axloqi umuman olganda, insonning axloqiy kamoloti haqidagi falsafiy ta'limotdir. Insoniyatning ma'naviy tamadduni tarixiga nazar tashlansa bu yo'lning yetuklik darajasi tasavvuf ta'limotlarida aks etgan edi. Tasavvuf mohiyatan inson qalbi va ruhiyatini uyg'otib, axloqiy poklikni targ'ib etadi hamda jamiyatda jaholat va xudbinlikka qarshi kurashib, o'z navbatida, islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni Karim va Hadisi sharifga o'zining g'oyaviy asosi sifatida tayanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot zamonida, inson ongini egallash uchun kurash mavjud bo'lgan sharoitda jamiyat a'zolari, xususan yoshlar tafakkurini shakllantirishda tasavvuf ta'limoti namoyondalarining ma'naviy-axloqiy g'oyalari nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dissertant fikricha, Maxtumqulining pand-nasihatlarida Qur'on oyatlari, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hadislariga ko'p murojaat etilgan. Ulardagi ma'rifiy-axloqiy g'oyalardan (kimki ichin sof etmas, oxiratdan xavf etmas) o'z davridagi voqea va hodisalarning asl mohiyatini ochib berishda mohirona foydalanilgan. Jumladan, "Maxtumquli har kim ichin sof etmas, Ma'lumdirki oxiratdan xavf etmas. Ojiz tani o't qo'rida tob etmas, yo Rab nechuk bo'lar holi bandaning"<sup>23</sup>, - deya falsafiy mulohazalarini bayon qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Maxtumquli Firog'iy ma'naviy merosida ijtimoiy-falsafiy g'oyalar tahlili**" deb nomlanib, mazkur bobda mutafakkirning xalqlararo do'stlik, ijtimoiy hamkorlik va tabaqalararo konsensus g'oyalari yoritilgan, shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq g'oyalari xususida fikr yuritilgan, mutafakkirning pand-nasihatlari va hikmatlarida aks etgan turkman xalqini birlashtirish, xalq birligiga erishish, Vatanni himoya qilish va uni sevish, adolat uchun kurash g'oyalari tadqiq qilingan.

Maxtumquli Firog'iyning ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi vatanparvarlik g'oyalari kishilarni inoq va do'st bo'lib yashashga, xalqning turmush tarzi hamda jamiyatning barqarorligi, uning ravnaqi, adolatli jamiyat barpo etishga, imon butunligi, ma'naviy va ruhiy poklik uchun xizmat qilishga undashi ta'kidlanadi. Tadqiqotchi tomonidan Maxtumquli ijtimoiy-falsafiy g'oyalarida, milliy davlat tuzish turkman xalqini saqlab qolishning sharti ekani, uning qadimiy shon-

<sup>22</sup> Maxtumquli. Сайланма / Туркман тилидан Мирзо Кенжабек тарж.: Масъул муҳаррир Сайфиддин Сайфуллоҳ. -Тошкент: Фан, 2004. -Б.20.

<sup>23</sup> МАХТИМҚУЛИ. Том I {Матн} / Таржимон Г. Матёқубова. - Нукус: AVANGARD-BASRA, 2022. –Б.152.

shavkati, beqiyos mardligi, hamjihatlik tuygʻusi, kulfatda qolganlarga yordamga tayyor turish, mehmondoʻstlik va saxiylik kabi fazilatlarni targʻib qilganligi, oʻz pand-nasihatlarini orqali insonlarni ezgulikka chorlab, toʻgʻri yashash, haqiqat yoʻlida kurashish, tugʻilgan makon, el-yurtini avaylab-asrash kabi fazilatlarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi falsafiy jihatdan asoslab berilgan.

Turkman xalqi tarixining murakkab bir davrida yashagan Maxtumquli jamiyatning kamchilik va qarama-qarshiliklariga yaqindan munosabat bildirib, qattiq qoralagani, ularning oldini olishni oʻz davrining asosiy vazifasi deb bilgani, mazkur illatlarni bartaraf etishning yagona yoʻli – tarqoq holda yashayotgan turkman urugʻlarining birlashishi deb hisoblab, ularni birlik va hamjihatlikka chaqirgan.

Qurganim aslida, bilgil, bu zaminning mixidir,  
Erur ul erkin doim, budir turkman binosi<sup>24</sup>.

Bu kabi fikrlari bilan Maxtumquli oʻz elining ozodligi, baxtli kelajagini orzu qilgan vatanparvar sifatida namoyon boʻladi. Mutafakkirning vatanparvarlik gʻoyalari ijtimoiy zarurat va barqarorlikning muhim elementi sifatida koʻzga tashlanishi, xususan, ona yurt istiqboli uchun jon kuydirish, turkman urugʻlarini birlashishga chorlash, ularning oʻzaro nizolarini tinch yoʻl bilan bartaraf etishga boʻlgan intilish, daʼvatni koʻrish mumkinligi, oʻz elining haqiqiy vatanparvar farzandi sifatida mutafakkir doimo millatning istiqbolini oʻylagani va buni oʻz qarashlarida namoyon etishga harakat qilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada Maxtumqulining oʻz ona-yurti madhini yuqori darajada mahorat bilan tasvirlaganligi borasida ham mulohazalar yuritilgan. Mutafakkirning oʻz yurtini qanchalar ardoqlashi, sevishini quyidagi misralaridan bilish, his qilish mumkin:

Jayhun bilan bahri Hazar orasi,  
Choʻl ustidan esar yeli turkmanning.  
Gul gʻunchasi qaro koʻzim qorasi,  
Qora togʻdan enar seli turkmanning<sup>25</sup>.

Maxtumquli oʻzning ontologik qarashlarida ona yurt tabiatining goʻzalligini madh etib, Amudaryo va Kaspiy dengizi orasida yashayotgan turkmanlarning bir kun kelib garmoniyada, yagona davlatda jam boʻlishini orzu qiladi, oʻz xalqining uyushgan holda taraqqiy etishini istaydi. Faqat birlik va barqarorlikdagina kelajagi porloq, yurti obod millat boʻlishi mumkinligiga urgʻu beradi. Yuqorida taʼkidlangan jihatlar Maxtumqulining “bugungi kunda turkman adabiyotining otasi va umummilliy madaniy timsol”<sup>26</sup> sifatida qadrlanishida muhim omil boʻlgan.

Dissertatsiyada Maxtumquli Firogʻiyning ijtimoiy qarashlarida hokimiyat egalari, ulamo va qozilarni insofli, diyonatli boʻlishga chorlovchi gʻoyalar mavjudligi asoslab berilgan. Mutafakkir jamiyatdagi barqarorlik omillari, adolat, bagʻrikenglik, tenglik, hamjihatlik kabi tamoyillar talqiniga koʻp bora murojaat

<sup>24</sup> Махтумқули шеърлари. –Тошкент: “BOOK MEDIA NASHR”, 2019. –Б.104.

<sup>25</sup> МАХТИМҚУЛИ. Том I {Матн} / Таржимон Г. Матёкубова. - Нукус: AVANGARD-BASRA, 2022. –Б.10.

<sup>26</sup> Халлыев Р., Гутлыев Б., Бабаев Т. Духовное наследие великого мыслителя. // Мировая наука. - №3(72), 2023. -С.153

qilgan, o'zining asarlarida jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy ziddiyatlar, boshqaruvdagi adolatsizliklar, tengsizlikni qoralab, ayovsiz tanqid qilgan.

Sulaymonsan, chumoliga quloq sol,  
So'zini tinglagin, javob aytaqol,  
Hokimmisan-xalqqa nur soch, quyosh bo'l,  
Oqarda suv yo esarda yel bo'lg'in!<sup>27</sup>

Mazkur fikrlarning bugungi kundagi ahamiyatini jamiyat taraqqiyoti o'zida namoyon qilmoqda. Hokimiyat vakillari va xalq ommasi o'rtasidagi sog'lom, murosaviy munosabat jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim shartlaridan hisoblanadi. Lekin davlat va jamiyat boshqaruvining turli bo'g'inlaridagi mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiste'mol qilgan holda korrupsion hatti-harakatlarni sodir etish holatlari uchrayotgani muammoning dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Maxtumquli o'z davrining mavjud kamchiliklarini tanqidiy ifoda etar ekan, o'z navbatida mazkur illatlarni bartaraf etish uchun o'zaro ishonch, inoqlik, mehr-oqibat, totuvlik zarurligini ta'kidlagan.

Maxtumquli shaxslararo munosabatlarda axloqiy normalarga amal qilish zarurligini o'z asarlarida mukammal ko'rsatib bergan:

Yetimni ko'rganda kular yuz bergil,  
Qo'ldan kelganicha taom-tuz bergil,  
Bir g'amli ko'rganda shirin so'z bergil,  
Yo'qsilni qo'llarga himoyat yaxshi<sup>28</sup>.

O'z davrida mutafakkir tomonidan tilga olingan muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, ma'naviy-ruhiy dalda bo'lishga undash aslida jamiyat a'zolarini bir-birlari bilan o'zaro hamjihatlikda va hamkorlikda yashashga chaqiriqdir. Mazkur ijtimoiy-axloqiy faktorlar bugungi kunda ham jamiyat farovonligi uchun muhimdir. Masalaning yuksak ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Davlat hokimiyati va keng jamoatchilik tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga e'tiborning kuchaytirilayotganligi bu yo'nalishdagi muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bugun aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks dasturiy chora-tadbirlar davlatimizning bu sohadagi oqilona siyosat yuritayotganidan darak beradi.

